



## O'qituvchi badiiy asarlar o'qishi orqali notqlik san'atini rivojlantirish

Oriental Universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

3-bosqich talabasi Umaraliyeva Sevinch

Ilmiy rahbar: Toshov Muhiddin

### Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy asarlarning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati, bu bilan nutqni o'stirish va notqlik san'atini rivojlantirish kabi tushunchalar yoritib berilgan. Badiiy asarlar orqali nutqni ravon tarzdashakllantirish haqida to'xtalib o'tilgan.

### Kalit so'zlar

Badiiy asarlar, adabiyot, inson ruhiyati, o'qituvchi, notqlik san'ati, nutq madaniyati, nutqni rivojlantirish

**Kirish.** Bilamizki, badiiy adabiyot inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi, uning tuyg'ular olamini qaror toptiruvchi hamda komillikka yetaklovchi sehrli bir tilsimdir. Badiiy asarlar inson ongini tarbiyalashda, nutq madaniyatini mukammal tarzda shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Badiiy asarlar cheksiz his tuyg'ularga, g'oyalarga, turli xil qarashlarga boy manba hisoblanib, kishi undan ma'naviy ozuqa oladi. asarda turli zamonlardagi kishilarning o'y-xayollari, fikrlari, hayot tarzi, xarakter-xususiyatlari o'z aksini topadi. Kitobxon esa, asarni o'qish chog'ida bevosita asardagi barcha xususiyatlarni o'ziga singdirib boradi.

Adabiyot olamida inson ruhiyatiga, uning nutqiy rivojlanishini yuksaltiradigan asarlar, ijod mahsullari bisyor, albatta. Said Ahmadning "Ufq", "Jimjitlik", O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi, Abdulla Qahhorning jamiiki hikoyalari, jumladan, Ahmad Yugnakiyning "Hibbat-ul haqoyiq", Ahmad Yassaviyning

“Hikmatlar”i, shuningdek, Abdulla Qodiriy, Oybek, G’.G’ulom, Zulfiya, Saida Zunnunova, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi ijodkorlarning asarlari, ijod namunalari tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bunday asarlarni sanasak adog’i yo’q. Bularning barchasi ezgulikka, hayot haqiqatlarini anglashga undaydi.

**Asosiy qism:** Badiiy asarlarni ayniqsa, nutqni shakllantirishda va rivojlantirishda ahamiyati katta hisoblanadi. Dars jarayonida puxta, lo’nda, jozibali va ravon nutq tuza olish malakasi barcha fan o’qituvchilari uchun zaruriy fazilat sanaladi. O’qituvchi go’zal va boy nutqi bilan o’quvchilarni mahliyo etib, bermoqchi bo’lgan bilimini bola shuuriga osonlik bilan olib kiradi. Nutq haqida to’xtaladigan bo’lsak, nutq- bu til deb ataluvchi, ijtimoiy- individual noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari, imkoniyatlarining obektiv borliq, tafakkur hamda vaziyat bilan bog’liq doimiy munosabatda namoyon bo’lishidir.. nutq bu rasmiy tildir.

U keng ma’noda so’zlardan, birikmalardan, gaplardan tashkil topadi.

Insonning nutq faoliyati uch ko’rinishda namoyon bo’ladi.

Bular- so’zlash, mutolaa qilish va eshitish. Notiqlik san’ati esa, og’zaki va yozma nutqni tinglovchilarga jonli, ifodali va ta’sirli yetkazish malakasini egallashdir. Notiqlik san’ati murakkab san’at bo’lib uni egallash kishidan qunt va chidam, malak va tajriba talab etadi. notiqlik san’atining ijtimoiy mavqeyi shu qadar kengki barcha sohalarda talab etiladi. Notiqlik san’atini turli sohalardagi o’rniga ko’ra quyidagi turlarga ajratish o’rinlidir.

1. Siyosiy notiqlik
2. Akademik notiqlik
3. Sud notiqligi
4. Ijtimoiy-maishiy notiqlik
5. Diniy notiqlik

Notiqlik san’ati uzoq tarixga borib taqaladi. Notiqlik san’ati haqidagi ilk ma’lumotlarnifaqatgina Gomerining “Iliada” va “Odesseya” nomli dostonlaridan olish



mumkin. O'sha davrlarda notiqlik – voizlik, notiq esa, voiz deb atalgan, nutq va'z deb atalgan. Shuningdek, Alisher Navoiy notiqlik san'ati haqida "Mahbub ul qulub " asarida to'xtalib o'tgan.

**Xulosa.** Xulosa qilish mumkinki, badiiy asarlarning o'rni yuqorida aytganimizdek barcha sohalarda muhim. Ayniqsa, o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarga nutqini ravon ifodalab berishi uchun badiiy asarlar muhim rol o'ynaydi. Badiiy asar matnida ilgari surilgan g'oya, tarbiyaviy marsadlari amalga oshirish va nutq o'stirishda uning til xususiyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. tilning nuqdagi qurilishi bu so'z , tasviriy ifodalar sanaladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolida G'ulomova. Badiiy asar matni tahlili orqali o'quvchilarning nutqini o'stirish. Toshkent .2020
2. Xaliqulova Go'zal. Notiqlik san'ati va badiiy so'z san'atining mustaqil turi sifatida. Madaniyat va san'at jurnali. 2023
3. Bekmirzayev. N. notiqlik san'ati asoslari. Toshkent.2008